



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR HORIIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR HORIIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI

Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0006-2728-9264>

Annotatsiya. Maqolada mahalla tadbirkorlik ekotizimining tarkibiy ishtirokchilari, ularning funksional vazifalari va o'zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, resurslar sirkulyatsiyasi, raqamli platformalar, qaytuvchi aloqalar va institutsional muvofiqlashtirish asosida mahallalarda tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: mahalla, mahallalarda tadbirkorlik, **hunarmandchilik**, tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarish, ekotizim.

Abstract. The article analyzes the structural participants of the mahalla entrepreneurial ecosystem, their functional tasks and mechanisms of interaction. It also scientifically substantiates the directions of sustainable development of entrepreneurship in mahallas based on resource circulation, digital platforms, feedback loops, and institutional coordination.

Keywords: mahalla, entrepreneurship in **mahallas**, crafts, management of entrepreneurship development, ecosystem.

Аннотация. В статье анализируются структурные участники предпринимательской экосистемы махалл, их функциональные задачи и механизмы взаимодействия. Также научно обосновываются направления устойчивого развития предпринимательства в махаллях на основе ресурсного оборота, цифровых платформ, обратной связи и институциональной координации.

Ключевые слова: махалля, предпринимательство в махаллях, ремесла, управление развитием предпринимательства, экосистема.

KIRISH

Globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda kambag'allikni qisqartirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda "mahallabay ishlash" tizimi, oilaviy tadbirkorlik dasturlari va hunarmandlarga berilgan moliyaviy hamda soliq imtiyozlari mahalliy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, mahallalar salohiyatidan yanada to'liqroq foydalanish uchun, jarayonni infratuzilma, moliyaviy resurslar va inson kapitalining o'zaro bog'liqligi asosida kompleks tadqiq etishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik, innovatsion menejment, hududiy rivojlanish va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari B.Yu. Xodiyev [1], M. Sharifxo'jayev, M.S. Qosimova, D.N. Rahimova, Yo. Abdullayev [2], B.K. G'oyibnazarov [5], S.K. Salayev [6], Sh.J. Ergashxodjayeva [7], U.V. Gafurov [4, 8, 11], D.S. Alimatova [9], M.M. Ibragimova [10] va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarda kichik biznesni boshqarish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, mintaqaviy rivojlanish, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion marketing, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, ekonometrik modellashirish va prognozlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mahallalarda tadbirkorlik, hunarmandchilik, oilaviy biznes, kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash masalalari B. Berkinov, U.V. Gafurov, I.M. Xasanov [12], N.N. Ernazarova [13], T.N. Mamayev [14], O.X. Mahmudov [15] kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, hunarmandchilik salohiyatidan foydalanish, kambag'allikni qisqartirish va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish yo'nalishlari yoritilgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, hududiy rivojlanish, innovatsion menejment, mahalla institutining ijtimoiy funksiyalari hamda oilaviy tadbirkorlik masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, mahallalarda tadbirkorlikni



rivojlantirishni boshqarish metodologiyasini kompleks takomillashtirish masalalari yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asoslash maqsadida tizimli, institutsional, ekotizimli va struktur-funksional yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv mahalla tadbirkorlik ekotizimini o'zaro bog'liq subyektlar, resurslar, institutlar va boshqaruv mexanizmlaridan iborat yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Institutsional yondashuv orqali mahalla instituti, hokim yordamchisi, moliya tashkilotlari, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va raqamli platformalarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi vazifalari aniqlandi. Struktur-funksional tahlil asosida ekotizim ishtirokchilarining funksiyalari, ular o'rtasidagi vertikal, gorizontal va qaytuvchi aloqalar mazmunan baholandi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy tahlil va modellash usullaridan foydalanildi. Xususan, tadbirkorlik ekotizimlari nazariyasi doirasida Daniel Isenberg va Erik Stam tomonidan ilgari surilgan ilmiy yondashuvlar mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini asoslashda nazariy-metodologik manba sifatida qo'llanildi.

Shuningdek, tadqiqotda resurslar sirkulyatsiyasi, axborot almashinuvi, moliyaviy oqimlar, raqamli monitoring va institutsional muvofiqlashtirish jarayonlari tahlil qilindi. Bu esa mahalla tadbirkorlik ekotizimining o'zini o'zi rivojlantiruvchi, moslashuvchan va barqaror ochiq tizim sifatida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalla tadbirkorlik ekotizimining samarali faoliyat yuritishi unda ishtirok etuvchi subyektlarning funksiyalari aniq taqsimlanganligi hamda ular o'rtasidagi ko'p darajali aloqalarning mavjudligiga bog'liqdir. Tadbirkorlik ekotizimlari nazariyasining yetakchi vakillaridan biri bo'lgan Daniel Isenberg tadqiqotlarida ekotizim muvaffaqiyati alohida institutlarning mavjudligi bilan emas, balki ular o'rtasidagi hamkorlik sifati bilan belgilanadi. Erik Stam ham hududiy tadbirkorlik rivojlanishida turli manfaatdor tomonlar o'rtasidagi resurslar almashinuvi va hamkorlik tarmoqlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Mahalla tadbirkorlik ekotizimi sharoitida ham har bir ishtirokchi muayyan vazifani bajaradi va ularning o'zaro uyg'unligi umumiy natijadorlikni ta'minlaydi. Ekotizim ishtirokchilarining asosiy funksiyalari (1-jadval).

1-jadval
Ekotizim ishtirokchilarining funksiyalari

Ishtirokchi	Ekotizimdagi funksiyasi
Mahalla instituti	Ijtimoiy baza, mahalliy ehtiyojlarni aniqlash, aholining safarbarligini ta'minlash
Hokim yordamchisi	Subyektlararo bog'lovchi, manzilli qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish
Moliya institutlari	Kredit, mikromoliya va investitsiya resurslari bilan ta'minlash
Ta'lim muassasalari	Malaka oshirish, tadbirkorlik ta'limi va konsalting xizmatlari
Innovatsion tuzilmalar	Startaplarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi
Jamoat tashkilotlari	Inklyuzivlikni ta'minlash, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ishtirokni kuchaytirish
Raqamli platforma operatori	Ma'lumotlarni integratsiyalash, monitoring va shaffoflikni ta'minlash

1-jadvalda ko'rsatilgan subyektlar yagona tizim doirasida faoliyat yuritadi va bir-birining funksiyalarini to'ldiradi. Mahalla instituti hududdagi ehtiyojlar va muammolarni aniqlasa, hokim yordamchisi ushbu ehtiyojlarni amaldagi davlat dasturlari hamda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan bog'laydi. Moliya institutlari iqtisodiy tashabbuslarni moliyalashtiradi, ta'lim muassasalari esa tadbirkorlik uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Innovatsion tuzilmalar yangi texnologiyalar va biznes yechimlarini joriy etishga xizmat qilsa, jamoat tashkilotlari ijtimoiy manfaatlar muvozanatini ta'minlaydi.

Ekotizim doirasida uchta asosiy oqim - resurslar, axborot va moliyaviy mablag'lar oqimi - uzluksiz ravishda harakatlanadi. Vertikal aloqalar davlat siyosati, dasturlar va resurslarning yuqori boshqaruv bo'g'inlaridan mahalliy darajaga yetkazilishini ifodalasa, gorizontal aloqalar turli subyektlar o'rtasidagi hamkorlik va sheriklik munosabatlarini aks ettiradi. Teskari aloqalar esa amalga oshirilgan faoliyat natijalari, mavjud muammolar va yangi ehtiyojlar to'g'risidagi ma'lumotlarning boshqaruv tizimiga qaytishini ta'minlaydi.




Natijada ekotizim yopiq emas, balki doimiy ravishda o'zini takomillashtirib boruvchi ochiq tizim sifatida shakllanadi. Aynan mazkur xususiyat mahalla tadbirkorlik ekotizimining uzoq muddatli samaradorligi va barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur modelda hokim yordamchisi va raqamli platforma mahalla tadbirkorlik ekotizimining markaziy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan tayanch bo'g'inlari sifatida namoyon bo'ladi. Ularning faoliyati ekotizimning barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lash, muvofiqlashtirish hamda umumiy rivojlanish maqsadlariga yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, hokim yordamchisi mahalla darajasida davlat siyosati, hududiy rivojlanish dasturlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy institutsional vositachi sifatida faoliyat yuritadi. U davlat organlari, moliya institutlari, ta'lim muassasalari, biznes subyektlari va mahalla aholisi o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlab, mavjud resurslarni maqsadli yo'naltirish hamda yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm mahalla tadbirkorlik ekotizimining siklik xususiyatga ega ekanligini hamda uning barcha tarkibiy qismlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyish etadi. Jarayonning dastlabki bosqichida moliyaviy mablag'lar, tashkiliy imkoniyatlar, infratuzilmaviy resurslar, axborot bazalari hamda inson kapitali safarbar qilinadi.

Mazkur resurslar tegishli institutlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish va rivojlantirishga yo'naltiriladi (1-rasm).



1-rasm. Ekotizim ichida resurslar sirkulyatsiyasi va ishlash mexanizmi



Natijada yangi biznes loyihalari, oilaviy tadbirkorlik subyektlari, xizmat ko'rsatish faoliyati hamda innovatsion tashabbuslar shakllanadi. Tadbirkorlik faolligining ortishi ishlab chiqarish hajmlarining kengayishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va aholining iqtisodiy faolligi kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, aholi daromadlarining oshishi ichki talabning kengayishiga xizmat qiladi, bu esa mahalliy bozorda yangi biznes imkoniyatlarining paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Natijada mahalliy byudjetga tushumlar ko'payadi, hududning investitsiyaviy jozibadorligi ortadi va iqtisodiy rivojlanish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalar shakllanadi.

Erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar mahalla rivojlanishining yangi bosqichini yuzaga keltiradi. Xususan, infratuzilma yaxshilanadi, aholi bandligi darajasi oshadi, ijtimoiy farovonlik mustahkamlanadi hamda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay muhit shakllanadi. Bunday sharoitda hosil bo'lgan yangi resurslar va imkoniyatlar yana ekotizim tarkibiga qaytib, navbatdagi rivojlanish siklining boshlanishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, mahalla tadbirkorlik ekotizimida resurslar aylanishi uzluksiz va takrorlanuvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Aynan qaytuvchi aloqalar mexanizmi va resurslarning doimiy sirkulyatsiyasi ekotizimning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Natijada tizim tashqi moliyaviy yoki tashkiliy yordamga to'liq qaram bo'lib qolmaydi, aksincha, ichki imkoniyatlar va mavjud salohiyat hisobiga o'zini o'zi qo'llab-quvvatlaydigan hamda doimiy ravishda yangilanib boradigan rivojlanish modeliga aylanadi. Bu esa mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali, barqaror va institutsional jihatdan mustahkam mexanizmini shakllantirish imkonini beradi.

Mahalla tadbirkorlik ekotizimining barqarorligi beshta asosiy va o'zaro bog'liq tarkibiy unsur orqali ta'minlanadi. Bular: o'z-rivojlanish, o'z-yangilanish, adaptivlik, raqamli transformatsiya hamda innovatsion barqarorlikdir. Ushbu unsurlar bir-biridan mustaqil holda emas, balki yagona tizimning o'zaro to'ldiruvchi elementlari sifatida faoliyat yuritadi.

O'z-rivojlanish mexanizmi ekotizimning ichki resurslari hisobiga kengayib borishini anglatadi. Bunda yangi tadbirkorlik tashabbuslari, mahalliy investitsiyalar va inson kapitalining rivojlanishi tizimning keyingi bosqichdagi o'sish manbalariga aylanadi. O'z-yangilanish esa mavjud faoliyat shakllarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, eskirgan mexanizmlarni yangilari bilan almashtirish hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni o'zlashtirish jarayonlarini qamrab oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mahalla tadbirkorlik ekotizimining samarali faoliyat yuritishi uning ishtirokchilari o'rtasidagi funksional taqsimot, hamkorlik sifati va resurslar sirkulyatsiyasining uzluksizligiga bog'liq. Mahalla instituti, hokim yordamchisi, moliya tashkilotlari, ta'lim muassasalari, innovatsion tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va raqamli platformalar yagona tizim sifatida faoliyat yuritganda, tadbirkorlik tashabbuslari samarali qo'llab-quvvatlanadi. Tadqiqotda taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish va mahalliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, qaytuvchi aloqalar, raqamli monitoring va resurslarning doimiy aylanishi ekotizimning o'zini o'zi rivojlantiruvchi, yangilanuvchi va tashqi ta'sirlarga moslashuvchan ochiq tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni institutsional jihatdan mustahkam, barqaror hamda innovatsion asosda rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. *Menejment: darslik*. - Toshkent, 2003. - 37 b.
2. Abdullayev Yo. *Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savolga 100 javob*. - Toshkent: Mehnat, 2002. - 157 b.
3. Xodiyev B.Yu. *O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modelashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati*. - Toshkent, 2000. - 42 b.
4. G'ofurov A. *Kichik xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari: monografiya*. - Farg'ona, 2008. - 74 b.
5. Boltaboyev M.R., G'oyibnazarov B.K., Otajonov Sh.I. *Kichik biznes va tadbirkorlik: o'quv qo'llanma*. - Toshkent, 2011. - 43 b.
6. Salayev S.K. *Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modelashtirish va bashoratlash: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati*. - Toshkent, 2007. - 14 b.
7. Ergashxodjayeva Sh.J. *Innovatsion marketing*. - Toshkent: Cho'lpon, 2014. - 178 b.
8. Gafurov U.V. *Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi*. - Toshkent: O'zBMA, 2017. - 274 b.



9. Alimatova D.S. *Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: TMI, 2018. - 77 b.
10. Ibragimova M.M. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini tarkibiy o'zgarishlar asosida oshirish*: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: TDIU, 2018. - 54 b.
11. Gafurov U.V. Mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari // *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. - 2025. - № VI. - B. 794-799.
12. Xasanov I.M. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari // *ReFocus*. - 2022. - № 1.
13. Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. - 2021. - № 3. - B. 253-258.
14. Mamayev T.N. Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish // *JMBM*. - 2023. - № 11.
15. Mahmudov O.X. Oilalarda kambag'allikni qisqartirish omillari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. - 2021. - № 6. - B. 267-276.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>